



Jo'rayeva Sevinchoy Zavqiddinovna
2nd year student of «Private law» faculty of
Tashkent State University of Law

THE INTEGRAL ROLE OF THE WOMEN IN THE WORKS OF GAFUR GHULAM.

Abstract: A mother, a woman is a great being who gave birth to thinkers, scientists, scholars and inspired them to great deeds, who made an incomparable contribution to the development of humanity. If we look at Ghafur Ghulam's work, we will witness this again. Gafur Ghulam reflects the uniqueness of a woman in his work through vivid imagery and lyrical language and sheds light on the complexities of women's lives in Central Asian society. The poet expressed his respect for women through a number of his poems. This article examines the vivid image of the female character in the poetry of the famous Uzbek writer Gafur Ghulam.

Keywords: Wife, woman, mother, mothers, respect, attention, Jamila, bouquet, passive figures.

G'AFUR G'ULOM IJODIDA AYOLLARNING AJRALMAS O'RNI.

Annotatsiya. Insoniyatning taraqqiy etishiga beqiyos hissa qo'shgan mutafakkir, olim va allomalarni dunyoga keltirgan, tarbiyalagan, ularni ulug'vor ishlarga ruhlanligan buyuk zot – ona, ayoldir. G'afur G'ulomning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bularning yana bir bor guvohi bo'lamic. G'afur G'ulom jonli tasvir va lirk til orqali ayolning o'ziga xosligini ijodida aks ettiradi hamda Markaziy Osiyo jamiyatidagi ayollar hayotining murakkabliklarini yoritadi. Shoир o'zining bir qator she'rlari orqali ayollarga bo'lgan hurmat, ehtiromni ifodalagan. Ushbu maqolada atoqli o'zbek yozuvchisi G'afur G'ulom she'riyatida ayol obrazining serqirra tasviri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Xotin, ayol, ona, onaxonlarga, ehtirom, e'tibor, Jamila, guldasta, passiv figuralar.

KIRISH

Atoqli o'zbek shoiri va adibi G'afur G'ulom o'zining hayoti, madaniyat va jamiyat hayotining turli jahbalarini o'zida mujassam etgan ta'sirchan misralari bilan Markaziy Osiyo adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. Ayniqsa, uning "Shum bola" qissasini o'qimagan inson bo'lmasa kerak. Bundan tashqari, adibning takrorlanmas she'rlari, hikoyalari insonni chuqur o'yga toldiradi. Uning ko'pgina asarlarida markaziy o'rinni ayollarning tasviri tashkil etadi, ularning rollari orqali go'zallik va muhabbat timsoli bo'lishdan tortib, sabr va chidamlilik timsoligacha gavdalantirilgan. G'afur G'ulom she'riyatida ayollar shunchaki passiv figuralar emas, balki jamiyat shakllanishida faol ishtirokchilardir. Bugungi maqolamizda shoирning ijodida ayollar qanday o'rin tutganligi haqida so'z yuritamiz va G'afur G'ulom qalamiga mansub bo'lgan ayrim she'rlarni tahlil qilamiz.

ASOSIY QISM

G'afur G'ulomning "Xotin", "Onaxonlarga", "Ona qizim Jamilaga" kabi she'rlarini mutolaa qilar ekanmiz, uning ijodida ayollar roli beqiyos ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ayol deganda ko'z oldimizga eng avvalo mo'tabar onamiz, qadrli buvijonlarimiz, munis opa-singillarimiz keladi. Ularga qancha e'tibor, g'amxo'rlik qilsak, quvontirishga urunsak baribir ozdir. Chunki, mana shu ayollar dunyoda yangidan-yangi chaqaloq yig'isi eshitilishiga sabab bo'layotgan zotlardir. Dunyoda shunday bir zot borki, uni har kuni e'zozlasak ham, dillarini hushnud qilishga urunsak ham uning haqqini ado eta olmaymiz. Bu mo'tabar zot- onadir. G'afur G'ulom o'zining "Xotin" she'rida ayollar haqida shunday go'zal ta'rif bergan:

Bizning xotinlarga hayo fazilat,
Mehnat bor, muhtojlik doim begona
Onamsan, yorimsan, singlimsan faqat,
Dunyoda eng aziz do'stim, yagona.

G'afur G'ulom she'riyatida takrorlanib turadigan mavzulardan biri ayol go'zalligining tarannumidir. Uning she'rlarida ko'pincha ayollar nafislik va nafosat bilan bezatilgan, borligi atrofdagi olamni yoritib turadigan oftob sifatida tasvirlangan. G'afur G'ulomning she'rlarini tahlil qilib, ayol zoti chindan ham o'z timsolida ezgulik, fidoiylik kabi oliyjanob insoniy fazilatlarni mujassam etganiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Ayol-borliq ko'zgusi. Uning nafis go'zalligi olamni charog'on etadi, chunki uning niyati pok, o'zi pok.

G'afur G'ulomning "Onaxonlarga" deb nomlangan she'ri e'tiborni tortadi. Shoir bu she'rni 1956-yilning aprel oyida yozgan. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, shoir bu she'rni 8-mart Xalqaro Xotin-qizlar kuni bayramidan ilhomlanib yozgan bo'lsa ajab emas. G'afur G'ulom bayram tongida bir dasta gulni ko'tarib, kimnidir xursand qilmoqchi bo'lganini quyidagi satrlarda ko'rsa bo'ladi:

Qutlug' bayram tongida bir dasta gul ko'tarib,
Qadrliroq do'stимning qo'liga bermoqchiman.
Hamma yuz oyday yorug', hamma chehralar tanish,
Dillar dilning nusxasi, barisi alvon chaman.

Shoir gulni kimga berish kerakligini uzoq o'ylaydi, bu gullarga kim eng munosib ekanligini qidiradi. Bir qizga bersa yigitni ranjishini mumkin deydi, boshqa bir yigitga bersa qizi guldan go'zalligini aytadi. Oxiri bu gulga eng munosib insonni qidirib topadi. Bu - ona:

Ro'paramdan kelmoqda rosmana – ona xotin,
Namoyishlar egasi salobat bilan bosib.
Mehnatlash, mushfiq, lobar, hatto bilaman, otin,
Hurmat ham, guldasta ham qo'ygan kabi munosib.

Ona - naqadar buyuk zot. Hayot saboqlarini beruvchi, jonkuyar mehribon siymo. Yurt koriga yaraydigan farzandlarni kamolga yetkazayotgan volida, aziz insonni qo'llab quvatlaydigan sevimli rafiqqa. Onalar farzandlari uchun eng yaqin do'st bo'lishadi. Shuning uchun ham shoir guldastaga eng munosib bo'lgan insonni ona deb hisoblagan. Ular nafaqat guldastaga, balki bu dunyodagi jamiiki eng yaxshi narsalarga, hurmat ehtiromga, e'tiborga arziyidigan insonlardir.

G'afur G'ulom birinchi va ikkinchi jahon urushlarini guvohi bo'lgani barchaga ma'lum. Adib ijodida xotin-qizlar tasviri ularning jismoniy sifatlaridan tashqari, chuqurroq yondashuv mavjud bo'lib, ularning ichki kuch-qudrati va chidamlilagini aks ettiradi. Uning

ko'pgina she'rlarida ayollar mashaqqat va qiyinchiliklarda oilalarni bir-biriga bog'lab turgan tayanch ustunlari sifatida tasvirlangan. Xoh onalar, xoh qizlar, xoh xotinlar bo'lzin, ular o'zlarida o'zgarmas qat'iyat va matonatni o'zida mujassam etgan, notinch paytlarda tasalli va yo'l-yo'riq beradi.

G'afur G'ulom oiladagi rollaridan tashqari, kengroq ijtimoiy kontekstlarda ayollarning ahamiyatini ham o'rganadi. U ularning hayotning turli jahbalariga, jumladan, ta'lif, madaniyat va faollikka qo'shgan hissalarini nishonlaydi. G'ulom she'riyatida ayollar matonat va jasorat bilan to'siqlarni buzib, hikoyalarni o'zgartiruvchi timsol sifatida namoyon bo'ladi.

Qolaversa, G'afur G'ulomning ayol obrazi ideallashtirilgan yoki romantiklashtirilgan tasvirlar bilan chegaralanib qolmaydi, balki turli kechinmalar va his-tuyg'ularni o'z ichiga oladi. Uning she'riyatida shodlik va mehrli lahzalardan tortib, qayg'u va sog'inch lahzalarigacha bo'lgan davrda ayollar hayotining murakkabligini aks ettiradi, ularni o'z orzu-umidlari, orzu-istiklari, intilishlari bo'lgan serqirra inson sifatida tasvirlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, G'afur G'ulom ijodida ayollarning jamiyatdagi o'rni, o'ziga xos xususiyatga ega shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi. G'afur G'ulomning ijodida ayollar juda beqiyos tarzda tasvirlanib, ularga bo'lgan hurmat va ehtirom juda ajoyib tarzda ochib berilgan.

Bilamizki, ayol zotini bir so'z bilan tasvirlashning o'zi juda qiyin lekin shuni aytish mumkinki, G'afur G'ulom o'z ijodida ayolni juda o'zgacha tarzda ta'riflab bergan. G'afur G'ulom o'zining ta'sirchan misralari orqali ayollarning go'zalligi, kuchi va chidamlilagini tarannum etadi. Uning ijodi avlodlar o'rtasida tinglovchilarda aks-sado berishda davom etar ekan, jamiyat tuzilishini shakllantirishda ayollarning o'rnini eslatib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afur G'ulom tanlangan asarlari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaajidiy uyi.2021.
2. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. O'zbekiston SSR. "Fan" nashriyoti.1989. 11-b
3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijidiy uyi, 2021. - 352 b.
4. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. -T.: Fan, 2004.